

Science
Conference
2026

13–14 Feb 2026

International **scientific and practical conference**

- 1. Scientific technologies**
- 2. Economy**
- 3. Finance**
- 4. Mathematical analysis**
- 5. Technical sciences**
- 6. Pedagogy**
- 7. Psychology**
- 8. Philosophy**
- 9. Natural Sciences**



OpenAIRE | EXPLORE



www.d-pressa.com

International scientific and practical conference

Part 1
February 2026

Collection of Scientific Works

© International scientific and practical conference. 2026.

INFLYATSIYA VA UNING TALAB HAMDA TAKLIFGA BOG'LIQLIGI

Lutfullayeva Farangiz

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot
yo'nalishi 331-25 - guruh talabasi
farangizlutfullayeva247@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inflyatsiya tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati hamda talab va taklif bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Inflyatsiyaning yuzaga kelish sabablari sifatida talab inflyatsiyasi va taklif (xarajatlar) inflyatsiyasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, talab va taklif muvozanatining buzilishi natijasida narxlar darajasining oshishi, pulning xarid qobiliyatining pasayishi hamda iqtisodiy barqarorlikka ta'siri yoritiladi. Maqolada inflyatsiyani tartibga solishda davlatning pul-kredit va fiskal siyosati muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, talab, taklif, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, narxlar o'sishi, pul massasi, bozor muvozanati, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning shakllanishi talab va taklif qonuniga asoslanadi. Ushbu ikki omil o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Biroq ayrim holatlarda talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik narxlarning umumiy oshishiga olib keladi. Bu jarayon inflyatsiya deb ataladi. Inflyatsiya zamonaviy iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u pulning xarid qobiliyati, aholi turmush darajasi hamda ishlab chiqarish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Inflyatsiya — bu ma'lum davr mobaynida tovar va xizmatlar narxlarining umumiy darajada oshishi va natijada pulning qadrsizlanishidir. Inflyatsiya sharoitida bir xil miqdordagi pul avvalgiga nisbatan kamroq mahsulot yoki xizmat sotib olish imkonini beradi. Bu esa aholining real daromadlari kamayishiga olib keladi. Inflyatsiya iqtisodiyotda turli omillar ta'sirida yuzaga keladi, biroq uning asosiy sabablaridan biri talab va taklif muvozanatining buzilishidir. Talab inflyatsiyasi iqtisodiyotda umumiy talabning taklifdan ortib ketishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, aholining daromadlari oshishi, davlat xarajatlarning ko'payishi yoki bank kreditlarining kengayishi natijasida bozorda pul massasi ortadi. Bu esa iste'mol talabining kuchayishiga olib keladi. Agar ishlab chiqarish hajmi bu oshgan talabni qondira olmasa, mahsulot yetishmovchiligi yuzaga keladi va narxlar ko'tariladi. Natijada inflyatsiya kuchayadi. Shuning uchun pul massasi va talab o'rtasidagi mutanosiblik iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Inflyatsiyaning oshishi iqtisodiyotga turli ta'sirlar ko'rsatadi. Agar uning darajasi me'yordan oshsa, iqtisodiy jarayonlar izdan chiqadi. Ayniqsa, giperinflyatsiya holatida narxlar sezilarli darajada ko'tarilib, iqtisodiyotni begaror holatga keltiradi. Inflyatsiyaning ochiq va yashirin turlari mavjud. Ochiq inflyatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida kuzatilib, narxlarning erkin o'sishi iqtisodiy muvozanatga ta'sir qiladi. Garchi bu jarayon bozor mexanizmini izdan chiqarsa ham, iqtisodiyot o'z-o'zini moslashtirishga harakat qiladi. Yashirin inflyatsiya esa boshqa shaklda namoyon bo'ladi. Davlat narxlarning keskin oshishiga qarshi chora

ko'rib, ularni ma'lum darajada tartibga solishga harakat qiladi. Biroq bu holat bozordagi tabiiy muvozanatni buzib, iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini pasaytirish mumkin. Narxlarning sun'iy muzlatilishi esa ishlab chiqarish xarajatlarini oshirib, kapital qimining kamayishiga sabab bo'ladi. Bu esa mahsulot yetishmovchiligining va narxlarning yanada ko'tarilishiga olib keladi. Ochiq inflatsiyaning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular orasida talab inflatsiyasi, harajat inflatsiyasi va tuzilma bilan bog'liq inflatsiya ajralib turadi. Ushbu inflatsiya shakllari bevosita bozor mexanizmlari natijasida shakllanadi. Bozor sharoitida inflatsiya tabiiy ravishda vujudga keladi va muvozanat saglanadi. Bu holatda narxlarning nisbati o'zgarmay, harajatlarning oshishi mahsulot narlarining ko'tarilishiga olib keladi. Natijada, korxonalar o'z daromadlarini saglab golishga harakat qiladi. Inflatsiya pul qadrsizlanishiga sabab bo'lib, uning iqtisodiyotdagi roliga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Taklif inflyatsiyasi ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi bilan bog'liq. Xomashyo, energiya resurslari, transport xarajatlari yoki ish haqi oshganda korxonalar mahsulot tannarxini ko'tarishga majbur bo'ladi. Bu esa yakuniy narxlarning oshishiga sabab bo'ladi.

Taklifning qisqarishi ham narxlarning o'sishiga olib keladi. Masalan, tabiiy ofatlar, resurslar tanqisligi yoki import mahsulotlar narxining oshishi ichki bozordagi taklifni kamaytiradi. Natijada narxlar darajasi ko'tarilib, inflyatsion jarayonlar yuzaga keladi. Talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buzilganda inflyatsiya yuzaga keladi yoki kuchayadi. Shu sababli davlat inflyatsiyani nazorat qilish maqsadida pul-kredit va fiskal siyosat vositalaridan foydalanadi.

Pul-kredit siyosati orqali Markaziy bank pul massasini tartibga soladi, foiz stavkalarini o'zgartiradi hamda inflyatsiya darajasini pasaytirishga harakat qiladi. Fiskal siyosat esa davlat budjeti xarajatlari va soliqlar orqali iqtisodiyotdagi umumiy talabga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti misolida ham inflyatsiya jarayonlari ko'pincha talab va taklif omillari bilan bog'liq holda shakllanadi. Aholi daromadlarining o'sishi, investitsiyalarning ko'payishi yoki tashqi iqtisodiy omillar narxlar darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu usullardan tashqari narxlar va daromatlarni nazorat qilish, taklifni oshirish va inflyatsion kutipmalarni boshqarish kabi usullarni ham qo'llashi mumkin. Narxlar va daromadlarni nazorat qilish: Davlat ba'zi hollarda narxlar va ish haqlarini nazorat qilish orqali inflatsiyani cheklashga harakat qiladi. Biroq, bu usul bozordagi tabiiy muvozanatni buzishi mumkin.

Taklifni oshirish: Mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishini ko'paytirish orqali bozorda taklifni oshirish, bu esa narxlarning barqarorlashishiga olib keladi. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik va qurilish sanoatida ishlab chiqarishning o'sishi ichki iste'mol bozorida taklif hajmining ortishiga xizmat qiladi.

Inflatsion kutilmalarni boshqarish: Aholi va biznes subyektlarining inflatsiya bo'yicha kutilmalarini boshqarish orqali narxlarning oshishini oldini olish mumkin. Bu, asosan, markaziy bank va hukumatning ishonchli siyosati va kommunikatsiya orqali amalga oshiriladi.

Dunyo mamlakatlarida pulning qadrsizlanishi inflyatsiya. Venesuelada inflyatsiya darajasi 283% bo'lib, bu dunyodagi eng yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlaridan biridir. Bunday yuqori inflyatsiya asosan neft narxining pasayishi, iqtisodiy sanksiyalar, siyosiy begarorlik va milliy valyuta (bolivar)ning qadrsizlanishi bilan bog'liq. Argentina ham yuqori inflyatsiya darajasiga ega (161%), bu asosan valyuta devalvatsiyasi, tashqi qarzarlar va iqtisodiy siyosatdagi beqarorlikdan kelib chiqadi. Argentina ko'p marta pul-kredit siyosatini qat'iylashtirgan bo'lsa-da, inflyatsiyani nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Sudanda inflyatsiya darajasi 63,3% bo'lib, bu mamlakatning iqtisodiy begarorligi va ijtimoiy-siyosiy inqirozi bilan bog'liq. Ushbu yuqori inflyatsiya Sudan iqtisodiyotida asosiy muammolardan biri bo'lib, oziq-ovqat narxlarining oshishi, kambag'allik darajasining o'sishi va xalqning yashash sharoitlarining yomonlashishiga olib kelmoqda. Suriya inflyatsiyasi 79,1% ga teng bo'lib, bu mamlakatdagi fuqarolik urushi va xalqaro sanksiyalar bilan bog'liq. Suriya iqtisodiyoti urush tufayli halokatli holatga kelgan va pulning qadrsizlanishi ham jiddiy iqtisodiy muammolarga olib kelgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inflyatsiya — bu talab va taklif qonuni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab iqtisodiy jarayondir. Talabning haddan tashqari oshishi yoki taklifning qisqarishi narxlarning umumiy o'sishiga olib keladi. Inflyatsiya pulning xarid qobiliyatini pasaytirib, iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. John Maynard Keynes. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. — London, 1936.
2. Milton Friedman. Kapitalizm va erkinlik. — Chicago: University of Chicago Press, 1962.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Inflyatsiya sharhlari va pul-kredit siyosati hisobotlari. — Toshkent, so'nggi yillar.
4. Toshqulova, Sh. "Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari va uning oldini olish usullari". — Ilmiy maqola.
5. Jumaqo'ziyev, O. "Pulning qadrsizlanishi va inflyatsiya jarayonlari". — Ilmiy maqola.
6. Bo'ltakov S. O 'ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 565-567.
7. Bo'ltakov S. BALIQCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASH MEZONLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 366-371.
8. Bo'ltakov S. et al. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI AHAMIYATI //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 60-62.
9. Bo'ltakov S. Innovatsion Usulda Baliq Yetishtirishning Iqtisodiy Samaradorligini Oshirish Yo'llari (Sirdaryo Tumani Misolida) //Green Economy and Development. – Т. 3. – №. 9. – С. 666837.